

JOURNAL OF DIGITAL LAW AND INNOVATION (JDLI)

LAW • TECHNOLOGY • INNOVATION • JUSTICE

 OPEN
ACCESS

INTERNATIONAL
PEER-REVIEWED
JOURNAL



OUR FIELDS

- Digital law
- Cybersecurity law
- Artificial intelligence and robotics law
- Intellectual property law
- LegalTech and legal innovations
- E-government and digital public services
- Legal aspects of AgroTech and GreenTech
- Smart city and digital governance



OUR INDEXING



Google Scholar



zenodo Zenodo



DOI



OpenAIRE



Open Access



<https://unireview.uz/index.php/jdli>



Published by
UniLex Global, Uzbekistan



VOLUME 1

ISSUE 1



JUNE 2026



“UNILEX GLOBAL” LLC

**Raqamli huquq va innovatsiya
jurnali
Journal of Digital Law and
Innovation**

**June, 2026
VOLUME 1, ISSUE 1**



EDITORIAL TEAM

Editor-in-Chief, Tukhtashev Hikmatilla Ismatillaevich - Head of the Department of Legal Sciences, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), TIAME National Research University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.

1. **Editorial Board Member Borotov Mirodiljon Xomudjonovich** — Doctor of Legal Sciences, Professor, Head of the Department of Civil Law, International Law and International Organizations, Institute of State and Law of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
2. **Editorial Board Member Maripova Sevarxon Aribjanovna** — Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), Associate Professor, Department of Social Sciences, Cyber University State University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
3. **Editorial Board Member Kaharova Munira Maxamajanovna** — Doctor of Political Sciences (DSc), Researcher, Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
4. **Editorial Board Member Yuldashev Mutalib Ibrohimovich** — Doctor of Economic Sciences, Professor, Department of Economics, Tashkent University of Science and Technology, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
5. **Editorial Board Member Bafaev Shukhrat Gafurovich** — Doctor of Legal Sciences, Head of the Tashkent City Branch, Center for the Analysis of Democratic Processes, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
6. **Editorial Board Member Khodjaeva Aziza Bakhtiyarovna** — Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), "Academy of Labor and Social Relations" under the Federation of Trade Unions of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
7. **Editorial Board Member Khudoyberdieva Viloyat Jabbrovanovna** — Candidate of Legal Sciences (PhD), Olmazor District Department of Public Education, Tashkent City, Republic of Uzbekistan.
8. **Editorial Board Member Boboumarova Munira Kurbonovna** — Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), Department for Organization of Investigative Activities, Investigation Division, Tashkent City Internal Affairs Department, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
9. **Editorial Board Member Usmonov Vosid Muhammadievich** — Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), Diplomatic University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
10. **Editorial Board Member Mirzayeva Malika Baxadirovna** — Doctoral Researcher, PhD, Associate Professor, Department of Digital Technologies and Artificial Intelligence, Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers – National Research University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
11. **Editorial Board Member Allayorov Tulqin Ruziqulovich** — Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Associate Professor, Nizami Named Tashkent State Pedagogical University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
12. **Editorial Board Member Tosheva Maftuna Anvar kizi** — Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers – National Research University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
13. **Editorial Board Member Askarov Jaloliddin Toychievich** — Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), Deputy Head, Department of Business Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
14. **Editorial Board Member Abdixakimov Islombek Bahodir o'g'li** — Master of Law (LL.M), Head of the Artificial Intelligence and Legal Tech Laboratory, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
15. **Editorial Board Member Kalandarov Aminjon Amondullayevich** — Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), Acting Associate Professor, Department of Business Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
16. **Editorial Board Member Hakimov Komil Bakhtiyarovich** — Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Head of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.

CONTENTS

03

**XUDOYBERDIYEV XUMOYUNBEK XABIBULLA O'G'LI,
QURVONBOYEV ASLBEK AZIZJON O'G'LI**

KIBERXAVFSIZLIKNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI
VA MILLIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI

13

SATTAROV ULUG'BEK UMED O'G'LI

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KIBERXAVFSIZLIK
MUAMMOLARI: ZAMONAVIY XAVFLAR VA BARQAROR
RIVOJLANISH YONDASHUVLARI

20

MANNABJONOVA DURDONA ABDUXALIL QIZI

DAVLAT IDORALARIDA SUN'IY INTELLEKTDAN
FOYDALANISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

34

HUSANOVA SHABBONA BAHROMOVNA

RAQAMLI MUHITDA INTELLEKTUAL MULK
HUQUQINING MUHOFAZASI

40

RIXSIYEV MUHAMMADAZIZ MUZAFFAR O'G'LI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA
KIBERJINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHNING
KONSITUTSIYAVIY-HUQUQIY VA XALQARO-
HUQUQIY ASOSLARI

54

BOYMIRZAYEVA MADINA IBROHIM QIZI

SUN'IY INTELLEKTNING HUQUQ TIZIMLARI VA ODIL
SUDLOV FAOLIYATIGA TA'SIRI

64

**TURSUNKULOV ELBEK OYBEK O'G'LI,
ABDUHAKIMOV ANVAR SHAYDULLO O'G'LI**

KIBERJINOYATLARDAN JABRLANGAN
SHAXSLARNING SHAXSIY MA'LUMOTLARINI
HIMOYA QILISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI



KIBERJINOYATLARDAN JABRLANGAN SHAXSLARNING SHAXSIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI

Tursunkulov Elbek Oybek o'g'li¹, Abduhakimov Anvar Shaydullo o'g'li²

¹“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti Yurisprudensiya
yo‘nalishi 2-kurs talabasi

²“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti Yurisprudensiya
yo‘nalishi 2-kurs talabasi

MAQOLA MA'LUMOTI

Kalit so'zlar:

kiberjinoyat,
kiberjabrlanuvchi,
shaxsga doir ma'lumotlar,
shaxsiy hayot daxlsizligi,
fishing, raqamli dalil,
GDPR, kompensatsiya.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada kiberjinoyatlardan jabrlangan shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish mexanizmlari konstitutsiyaviy, jinoyat, axborot qonunchiligi hamda kiber-viktimologik jihatlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi daxlsizlik, inson qadr-qimmat, mulkiy manfaatlar hamda sud orqali himoyalash huquqini ta'minlovchi tizimli institut sifatida yoritilgan.

LEGAL MECHANISMS FOR PROTECTING THE PERSONAL DATA OF PERSONS WHO HAVE BEEN VICTIMED BY CYBERCRIME

ARTICLE INFO

Keywords:

cybercrime,
cybercrime victim,
personal data,
privacy, phishing,
digital evidence,
GDPR, compensation.

ABSTRACT

This article examines the mechanisms for protecting the personal data of victims of cybercrime from the perspectives of constitutional, criminal, and information law, as well as cyber-victimological approaches. It further considers personal data security as a comprehensive legal institution that ensures the protection of privacy, human dignity, property interests, and the right to judicial protection.

ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ЗАЩИТЫ ПЕРСОНАЛЬНЫХ ДАННЫХ ЛИЦ, ПОСТРАДАВШИХ ОТ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ

ИНФОРМАЦИЯ СТАТЬИ

Ключевые слова:

киберпреступление,
жертва киберпреступления,
персональные данные,
неприкосновенность
частной жизни, фишинг,
цифровые доказательства,
GDPR, компенсация.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются механизмы защиты персональных данных лиц, пострадавших от киберпреступлений, с позиций конституционного, уголовного и информационного законодательства, а также с учетом кибервиктимологических аспектов. Кроме того, безопасность персональных данных рассматривается как комплексный правовой институт, обеспечивающий неприкосновенность частной жизни, защиту человеческого достоинства, имущественных интересов и права на судебную защиту.

KIRISH

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida shaxsga doir ma'lumotlar zamonaviy kiberjinoyatchilikning asosiy obyektlaridan biriga aylandi. Avval axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar ko'proq kompyuter tizimiga noqonuniy kirish, zararli dastur yaratish yoki axborot tizimini ishdan chiqarish kabi harakatlar bilan tavsiflangan bo'lsa, bugungi kunda kiberjinoyatchilikning markazida shaxsning raqamli identifikatori turibdi. Pasport ma'lumotlari, bank kartalari rekvizitlari, telefon raqami, elektron pochta, ijtimoiy tarmoq profillari va tibbiy ma'lumotlar kiberjinoyatchilar tomonidan fishing, identifikatsion o'g'rilik, onlayn kredit firibgarligi, shantaj, raqamli tovlamachilik va noqonuniy moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish vositasiga aylanmoqda.

O'zbekistonda kiberxavfsizlikni ta'minlash va kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish masalalari davlat siyosatining strategik ustuvorliklaridan biriga aylandi. Xususan, 2023-yil 20-dekabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Raqamli texnologiyalar vazirligiga tashrifi chog'ida transformatsiya jarayonlarining tarmoqlararo bog'liqligini ta'kidlab, "Har bir soha va hudud raqamli texnologiyalar bilan hamohang rivojlanmasa, mamlakat rivojlanmaydi", degan konseptual g'oyani ilgari surdi. [1] Mazkur fundamental yondashuv raqamli iqtisodiyot taraqqiyoti nafaqat texnologik modernizatsiyani, balki milliy kiberxavfsizlik tizimini mustahkamlash, shaxsiy ma'lumotlar muhofazasi hamda raqamli makonda inson huquqlarini kafolatlash kabi kompleks vazifalarni taqozo etishini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, 2025-yil 3-noyabr kuni o'tkazilgan kiberxavfsizlik masalalariga

bag'ishlangan yig'ilish xulosalari ham O'zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 31 milliondan, kiberjinoyatchilikka oid huquqbuzarliklar 68 baravarga o'sganligini ko'rsatadi. Xususan, subyektlarning shaxsiy ma'lumotlari, bank kartalari va elektron raqamli imzo tizimi bilan bog'liq firibgarlik transoratsiyalari ortib bormoqda. [2] Tizimda shaxsiy ma'lumotlar himoyasini ta'minlovchi aniq va unifikatsiyalashgan mexanizmning mavjud emasligi sohadagi huquqiy va infratuzilmaviy bo'shliqlarni ko'rsatadi. Shu bois yig'ilishda mazkur yo'nalishning huquqiy, texnologik va ilmiy-uslubiy platformasini tubdan isloh qilish vazifasi ustuvor etib belgilandi.

Shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi insonning fundamental huquqlari tizimida alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida har bir shaxsning shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan. Mazkur norma yozishmalar, telefon so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlar maxfiyligini kafolatlash bilan birga, subyektga o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishini, noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, shuningdek, qonunga xilof ravishda to'plangan yoki huquqiy asosini yo'qotgan ma'lumotlarning o'chirilishini talab qilish imkoniyatini beradi. [3] O'z navbatida, Bosh qomusimizning 55-moddasi ushbu huquqlarning buzilishi oqibatlarini bartaraf etishga xizmat qilib, jabrlanuvchilar huquqlarining qonuniy muhofazasini, davlat tomonidan odil sudlovga erishish hamda yetkazilgan zararining kompensatsiya qilinishi uchun zarur institutsional shart-sharoitlar yaratilishini kafolatlaydi.

Kiberjinoyatlardan jabrlangan shaxslarning konfidentsial ma'lumotlarini himoya qilish muammosi zamonaviy ilmiy adabiyotlardagi yondashuvlar asosida tadqiq etilmoqda. Xususan, tadqiqotlarning bir guruhi shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash strategiyasi kiberjinoyat oqibatida zarar ko'rgan shaxslarning huquqiy himoya darajasini belgilovchi asosiy omil ekanligini isbotlaydi. [4] Boshqa bir guruh olimlar esa shaxsga doir axborotlar egasini kiber-jabrlanuvchi sifatida klassifikatsiya qilib, elektron makondagi tranzaksion jarayonlarni normativ muvozanatga keltirishning xavfsizlik jihatlariga e'tibor qaratadi. [5] Shu bilan birga, kiberjinoyatchilikning transmilliy tabiati jabrlanuvchilar xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini global darajada korreksiyalashni, ya'ni xalqaro huquqiy hamkorlik, raqamli dalillar almashinuvi hamda transchegaraviy tergov institutlarining uyg'unlashuvini taqozo etmoqda. [6]

Xalqaro amaliyotda, xususan, Yevropa tajribasida ushbu muammo axborot xavfsizligi va

kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish strategiyalarining o'zaro integratsiyasi orqali ifodalanadi. Mavjud konseptual yondashuvlarga ko'ra, Yevropa Ittifoqi doirasida shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash institutlari kiber-tahdidlarning oldini olishda preventiv xarakterga ega bo'lib, xavfsizlik arxitekturasining fundamental elementi sifatida namoyon bo'ladi. [7] Ayniqsa, GDPR modelida axborot tizimlariga noqonuniy kirilgan taqdirda, vakolatli nazorat organini hamda ma'lumotlar subyektini zudlik bilan xabardor qilish tartibining pretsedenti yaratilgan bo'lib, bu chora jabrlanuvchiga o'z huquqiy va moddiy manfaatlarini operativ muhofaza qilish imkonini beradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham kiberjinoyatlar tushunchasi va ularning ilmiy-nazariy jihatlarini ko'plab olimlar tomonidan o'rganilmoqda. Xususan, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) X.R.Ochilovning kompyuter vositalaridan foydalangan holda o'zgalar mulkini talon-toraj qilganlik uchun javobgarlik masalalariga bag'ishlangan tadqiqoti kiberjinoyatchilikning mulkiy zarar bilan bog'liq jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. [8] O'z navbatida, Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi Xolbek Nurmanov onlayn bank tizimidagi firibgarlik harakatlarini kvalifikatsiya qilish muammolarini tahlil etib, milliy jinoyat qonunchiligida raqamli bank firibgarliklari oqibatida yuzaga keladigan zararlarni baholashning yetarli darajada differensiallashmaganini ko'rsatib o'tadi. [9] Mazkur tadqiqotlar kiberjinoyat subyektlarining shaxsga doir ma'lumotlarini muhofaza qilish muammosi jinoyat-huquqiy, bank-huquqiy va axborot-huquqiy mexanizmlarning konseptual kesishuv nuqtasida joylashganini tasdiqlaydi.

METODOLOGIYA

Maqolada formal-yuridik, tizimli-huquqiy hamda qiyosiy-huquqiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Xususan, formal-yuridik metod yordamida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi, "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning normalari dogmatik tahlil qilindi. Mazkur uslubiy yondashuv shaxsiy ma'lumotlar subyekti, operator, mulkdor, kiberxavfsizlik hodisasi, raqamli iz, jabrlanuvchi hamda kompensatsiya kabi tushunchalarning o'zaro huquqiy va funksional bog'liqligini aniqlash imkonini berdi.


Tizimli-huquqiy yondashuvning tatbiq etilishi shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash institutini fragmentar qonunlar majmuasi sifatida emas, balki o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan funksional subyektlar arxitekturasini sifatida baholash imkonini berdi. Mazkur tizim tarkibida konstitutsiyaviy fundamental asoslar, shaxsga doir ma'lumotlar rejimi, kiberxavfsizlik

insidentlarini tergov qilish, raqamli dalillar daxlsizligi, ma'muriy-jinoiy sanksiyalar hamda zarar qoplashning fuqarolik-huquqiy institutlari yagona himoya platformasi sifatida kompleks o'rganildi.

Qiyosiy-huquqiy yondashuv doirasida milliy qonunchilik normalari Yevropa Ittifoqining GDPR huquqiy rejimi va transchegaraviy kiberjinoiyatchilikka qarshi kurashishda elektron dalillar almashinuvi standartlari bilan tizimli tahlil qilindi.

NATIJALAR

Kiberjinoiyat qurbonlarining shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish masalasi milliy huquq tizimida bir-birini taqozo etuvchi va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan institutlar majmui orqali modellashtirilgan. Tadqiqot natijalari mazkur yo'nalishdagi huquqiy tartibga solish mexanizmlari konstitutsiyaviy kafolatlar, shaxsga doir ma'lumotlar qonunchiligi, kiberxavfsizlik insidentlarini aniqlash va protsessual tekshirish, shuningdek, jinoyat-huquqiy proteksiya, zararni kompensatsiya qilish hamda ko'p tomonlama xalqaro-huquqiy hamkorlik elementlaridan tashkil topganini ko'rsatadi.



1-diagramma. O'zbekistonda bank kartalari bilan bog'liq kiberjinoiyat usullari (%) [9]

Shaxsga doir ma'lumotlar kiberjinoiyat predmeti sifatida namoyon bo'lganda, jabrlanuvchining huquqiy himoya ko'lami faqatgina mulkiy zarar doirasi bilan cheklanmasligi lozim.

Kiberjinoyat oqibatida shaxsning pasport ma'lumotlari, bank kartasi rekvizitlari, aloqa raqamlari, shaxsiy yozishmalari, biometrik ma'lumotlari yoki elektron raqamli imzosi g'ayriqonuniy qo'lga kiritilsa, bu holat bir vaqtning o'zida shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligi, mulkiy manfaatlar hamda raqamli identifikatsiya daxlsizligiga qaratilgan kompleks tajovuz sifatida kvalifikatsiya qilinishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kiberjinoyat jabrlanuvchilarining shaxsiy ma'lumotlarini muhofaza qilish uchun yetarli darajada universal konstitutsiyaviy-huquqiy poydevorga ega. Bosh qomusimizning 31-moddasi shaxsiy hayot daxlsizligi hamda shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligini to'g'ridan-to'g'ri kafolatlasa, 55-moddasi kiber-tahdidlardan zarar ko'rgan shaxslar huquqlarining qonuniy muhofazasini, ularning odil sudlovga erishishini hamda yetkazilgan zararining kompensatsiya qilinishi uchun davlat tomonidan zarur institutsional shart-sharoitlar yaratilishini belgilaydi.

“Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi qonun [10] kiber-jabrlanuvchiga o'zining shaxsiy ma'lumotlari ustidan real nazoratni tiklash imkonini beruvchi asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Mazkur qonun shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish jarayonida qonuniylik, maqsadning muayyanligi, axborotning aniqligi va ishonchliligi, ishlov berish hajmining mutanosibligi hamda ma'lumotlarni ortiqcha muddat saqlamaslik kabi prinsiplarni belgilaydi. Shuningdek, ushbu huquqiy hujjatda shaxsga doir ma'lumotlar subyektini majburiy xabardor qilish, uning huquqiy vakolatlarini tushuntirish, ma'lumotlar uchinchi shaxsga uzatilganda yozma ogohlantirish yuborish, shuningdek, operator yoki mulkdor tomonidan ma'lumotlar xavfsizligiga mas'ul bo'lgan maxsus bo'linma yo mansabdor shaxsni tayinlash bo'yicha qat'iy talablar mustahkamlangan.

Tadqiqot davomida kiberxavfsizlik hodisalarini tergov qilish va raqamli dalillarni muhofaza qilish mexanizmlari o'ziga xos konseptual ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. “Kiberxavfsizlik to'g'risida”gi qonun [11] sohaga oid fundamental prinsiplar qatorida qonuniylikni hamda kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish ustuvorligini mustahkamlaydi. Mazkur normativ hujjatda kiberxavfsizlik hodisalarini vakolatli organlar yoki axborot resursi egalari tomonidan tizimli tekshirish, tizimli zaifliklarni bartaraf etish, zararli dasturiy ta'minotlarni bartaraf qilish, kiberhujum manbalarini cheklash, zarur hollarda axborot tizimlarini operativ lokallashtirish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga zudlik bilan ma'lumot taqdim etish majburiyatlari nazarda tutilgan.

Tadqiqot doirasida aniqlangan yana bir muhim konseptual yo'nalish shaxsga doir

ma'lumotlarni mahalliyashtirish mexanizmi bilan bog'liq. Normativ-huquqiy bazaga kiritilgan yangi tuzatishlarga muvofiq, fuqarolarning biometrik hamda genetik parametrlari, shuningdek, milliy telekommunikatsiya operatorlari abonentlarining shaxsga doir ma'lumotlar bazalari majburiy ravishda O'zbekiston rezidentligidagi serverlarda joylashtirilishi shart. Ushbu huquqiy profilaktika chorasi konfidentsial axborotlarning transchegaraviy oqimlar orqali sizib chiqishi, xorijiy yurisdiksiyalarda qonuniy asoslarsiz qayta ishlanishi va global kiber-tahdidlar arxitekturasida suiiste'mol qilinishi xavfini bartaraf etishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Mazkur konseptual muammolarni bartaraf etishda ilg'or xalqaro tajriba va tendensiyalarni tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Yevropa Ittifoqining Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha umumiy reglamenti (GDPR) 33-moddasida shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligi buzilgan taqdirda, vakolatli nazorat organi ortiqcha kechiktirishlarsiz, imkon qadar 72 soat ichida yuz bergan kiberhodisa haqida majburiy tartibda xabardor qilinishi belgilangan. [12] Reglamentning 34-moddasiga muvofiq, agar bunday huquqbuzarlik ma'lumotlar subyekting fundamental huquq va erkinliklari uchun yuqori darajadagi xavflarni keltirib chiqarsa, jabrlanuvchining o'zi ham sodda va tushunarli tilda zudlik bilan xabardor qilinishi lozim. Ushbu huquqiy model jabrlanuvchini jarayonning passiv kuzatuvchisi sifatida emas, balki o'z buzilgan huquqlarini himoya qilishda faol va tashabbuskor subyekt sifatida tan olinishini kafolatlaydi.

MUHOKAMA

Mazkur tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasida kiberjinoyatlardan jabrlangan shaxslarning shaxsga doir ma'lumotlarini himoya qilish bo'yicha zarur konstitutsiyaviy va normativ-huquqiy asoslar shakllangan bo'lsa-da, amaldagi himoya mexanizmlarida jabrlanuvchining buzilgan huquqlarini tezkor tiklashga qaratilgan protsessual institutlar yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish tizimi faqat ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash bilan cheklanmasdan, balki kiberjinoyatdan jabrlangan shaxsning buzilgan huquqlarini tiklash, raqamli dalillarni saqlash, zarar oqibatlarini bartaraf etish hamda kelgusidagi huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan kompleks huquqiy mexanizm sifatida shakllantirilishi lozim.

Olingan natijalar Ibrahim, Hasan va Ishak tomonidan 2024-yilda olib borilgan tadqiqot xulosalari bilan mos keladi. Mazkur mualliflar shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish siyosatining samaradorligi nafaqat ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishini cheklash, balki

kiberjinoyat qurbonlarining huquqlarini amaliy jihatdan tiklash imkoniyatiga ham bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar. [5] Mazkur tadqiqotda ham aynan jabrlanuvchining huquqiy maqomini kuchaytirish, ma’lumotlarning tarqalishi oqibatlarini bartaraf etish hamda davlat organlarining tezkor javob choralari huquqiy jihatdan mustahkamlash zarurligini ko‘rsatdi. Bundan tashqari olingan natijalar Indoneziyalik huquqshunos olimlar Zamroni va Basri tomonidan o‘rganilgan kiberjinoyatlarni transmilliy jinoyat sifatida baholashga oid xulosalari bilan ham o‘zaro bog‘liqdir. [7] Ularning fikricha, kiberjinoyat qurbonlarini himoya qilish milliy jinoyat qonunchiligi doirasida emas, balki xalqaro huquqiy hamkorlik, elektron dalillar almashinuvi hamda davlatlararo protsessual yordam mexanizmlari bilan uyg‘un holda amalga oshirilishi zarur. Mazkur tadqiqotda ham elektron dalillarni transchegaraviy almashish, xorijiy platformalar bilan hamkorlik hamda xalqaro protsessual standartlarni milliy tizimga implementatsiya qilish zarurligi aniqlandi.

Yevropa Ittifoqining GDPR modeli bo‘yicha Porcedda tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari ham mazkur ish xulosalarini qo‘llab-quvvatlaydi. [4] Muallif ma’lumotlarni himoya qilish va kiberjinoyatchilikning oldini olish o‘zaro uzviy bog‘liq huquqiy institutlar ekanligini asoslaydi. Mazkur tadqiqot davomida ham shaxsga doir ma’lumotlar xavfsizligi buzilganda jabrlanuvchini majburiy xabardor qilish, ma’lumotlar operatorining javobgarligini kuchaytirish hamda huquqbuzarlik oqibatlarini qisqa muddatlarda bartaraf etish mexanizmlarini milliy qonunchilikka joriy etish zarurligi aniqlandi.

Mahalliy ilmiy tadqiqotlar ham mazkur natijalarni tasdiqlaydi. Jumladan, tadqiqotchi G‘.A. Sa’dullayev axborot xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlarni alohida kriminologik yo‘nalish sifatida baholab, shaxsning axborot makonidagi daxlsizligini himoya qilish bo‘yicha maxsus huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish zarurligini ta’kidlaydi. [15] Bundan tashqari yuridik fanlari falsafa doktori (PhD) X.R. Ochilov tomonidan kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan mulkiy jinoyatlarning huquqiy tavsifi berilgan bo‘lib, mazkur tadqiqot natijalari kiberfiribgarlik oqibatida yetkazilgan moddiy zararlarni baholash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi X.R. Nurmanov esa onlayn bank firibgarligini kvalifikatsiya qilish bo‘yicha ishlab chiqqan ilmiy yondashuvlarida raqamli dalillar bilan ishlashning protsessual xususiyatlarini takomillashtirish zarurligini asoslaydi. Bizning tadqiqotimiz ushbu ilmiy qarashlarni davom ettirgan holda, ularni jabrlanuvchiga yo‘naltirilgan yagona huquqiy himoya modeli doirasida integratsiyalash zarurligini ko‘rsatdi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda kiberjinoyatlar sonining keskin ortib borayotgani mazkur tadqiqot xulosalarining amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda so'nggi besh yil davomida kiberjinoyatlar soni 68 baravarga oshgan bo'lib, ularning asosiy qismini bank kartalari va shaxsga doir ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish bilan bog'liq huquqbuzarliklar tashkil etmoqda. [13] Mazkur holat milliy qonunchilikni faqat jazolash mexanizmlarini kuchaytirish orqali emas, balki jabrlanuvchining buzilgan huquqlarini tezkor tiklash, ma'lumotlar xavfsizligini qayta ta'minlash va idoralararo hamkorlikni kuchaytirish orqali takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunga shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligi buzilishi tushunchasi hamda jabrlanuvchini majburiy xabardor qilish tartibini kiritish.

2. Kiberjinoyatlar bo'yicha elektron dalillarni yig'ish, saqlash va sudda baholashning yagona protsessual standartini ishlab chiqish.

XULOSA

Tadqiqot natijalari kiberjinoyat qurbonlarining shaxsiy ma'lumotlarini muhofaza qilish zamonaviy kiberhuquqning ustuvor yo'nalishi ekanligini ko'rsatdi. Milliy qonunchilikda jazolash choralari belgilangan bo'lsa-da, jabrlanuvchilarning buzilgan huquqlarini tiklash, tashqi ta'sirga uchragan ma'lumotlar xavfsizligini qayta tiklash va zararlarni to'liq qoplash mexanizmlari yetarli emas. Yevropa Ittifoqining GDPR modeli tahliliga ko'ra, ma'lumotlar subyektini majburiy xabardor etish va operatorlar javobgarligi institutlarini milliy huquqqa implementatsiya qilish himoya samaradorligini oshiradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, kiberjinoyat qurbonlari huquqlarini faqat an'anaviy protsessual choralar bilan cheklanmay, innovatsion huquqiy model asosida ta'minlash lozim. Mazkur model raqamli dalillarni saqlash standarti, idoralararo tezkor elektron hamkorlik hamda moddiy-ma'naviy zararlarni qoplash mezonlarini yagona tizimda birlashtiradi. Bu esa kiber-siyosatni shunchaki jazolash mexanizmidan raqamli adolat va konstitutsiyaviy huquqlar kafolatiga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev. (2023-yil, 20-dekabr). Raqamli texnologiyalar sohasidagi natijalar va 2024-yildagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutq. Prezident matbuot xizmati. <https://president.uz/uz>
2. Shavkat Mirziyoyev. (2025-yil, 3-noyabr). Kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi va kiberjinoyatchilikka qarshi kurash masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutq. Prezident matbuot xizmati. <https://president.uz/uz>
3. O'zbekiston Respublikasi. (2023). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Lex.uz. <https://Lex.uz/docs/6445145>
4. Porcedda, M. G. (2012). Data protection and the prevention of cybercrime: The EU as an area of security? EUI Working Paper LAW.
5. Ibrahim, V., Hasan, Y. S., & Ishak, P. (2024). Personal data protection policies and their impact on victims of cybercrime. Jurnal Ilmu Hukum Kyadiren.
6. Minarosa, M. (2022). Legal protection of personal data owners as cybercrime victims based on regulations regarding electronic information and transactions. MIC 2021 Proceedings.
7. Zamroni, Z., & Basri, B. (2024). Legal protection for victims of cybercrime as a form of transnational crime. Jurnal Ius Constituendum. <https://journal.unnes.ac.id/nju/ius/article/view>
8. Ochilov, X. R. O'zgalar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon-toraj qilganlik uchun javobgarlik.
9. Nurmanov, X. R. (2025). Onlayn banklar faoliyati sohasida firibgarlikni kvalifikatsiya qilish masalalari.
10. O'zbekiston Respublikasi. (2019). Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida (O'RQ-547-son). Lex.uz. <https://Lex.uz/docs/4396419>
11. O'zbekiston Respublikasi. (2022). Kiberxavfsizlik to'g'risida (O'RQ-764-son). Lex.uz. <https://Lex.uz/docs/5960604>
12. European Union. (2016). Regulation (EU) 2016/679 (General Data Protection Regulation).
13. Kun.uz. (2025, May 29). Uzbekistan sees 68-fold surge in cybercrime, nearly 2 trillion UZS stolen in five years. <https://kun.uz/en/news/2025/05/29/uzbekistan-sees-68-fold-surge-in-cybercrime-nearly-2-trillion-uzs-stolen-in-five-years>

14. Nurmanov, X. R. (2025). Onlayn banklar faoliyati sohasida firibgarlikni kvalifikatsiya qilish masalalari.
15. Sa'dullayev, G'. A. (2025). Shaxsning axborot xavfsizligiga tajovuz qiluvchi jinoyatlarning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari

